



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA
AHAMIYATI

Yuldashev Maqsud Mamasaliyevich,

Bojxona qo'mitasi xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda ta'lim-tarbiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan va taklif va tavsiyalar berilgan. Xususan, korrupsiyani bartaraf etishda eng muhim omillardan biri — jamiyatda ushbu illatga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishdir. Bunday muhitni yaratish jarayoni, avvalo, ta'lim va tarbiya tizimidan boshlanishi lozim. Har bir shaxs — pedagog bo'ladimi, bojxona yoki ichki ishlar organlari xodimi, prokuratura vakili yoki boshqa soha mutaxassisi bo'ladimi — korrupsiyaga qarshi kurashishni o'zining ichki axloqiy mezoni va mustahkam e'tiqodiga aylantirishi zarur.

Kalit so'zlar: korrupsiya, jamiyat, illat, murosasiz munosabat, ta'lim va tarbiya, o'quv jarayoni.

Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi so'nggi yillarda mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishda muhim siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu murojaatnoma O'zbekistonning kelgusi besh yillik strategik rivojlanish dasturining konseptual asosini tashkil etadi. Unda 2030-yilgacha O'zbekistonni dunyoning 50 ta eng rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shish, yalpi ichki mahsulotni ikki baravar oshirish, "Raqamli O'zbekiston - 2030" konsepsiyasini joriy etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim qamrovini 60 foizga yetkazish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Biroq ushbu yuksak maqsadlar sari intilar ekanmiz, taraqqiyot yo'liga eng katta to'siq bo'lib turgan, jamiyatning barcha sohalariga o'z salbiy ta'sirini o'tkazayotgan illat — korrupsiya masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Kadrlarni saralashdan tortib, davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida korrupsiyaning mavjudligi taraqqiyot sur'atlarini izdan chiqaradi, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradi va eng muhimi, odamlarning adolatga bo'lgan ishonchini yemiradi.

Mamlakatimiz mustaqillikning ilk yillaridanoq korrupsiyani bartaraf etish, uni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni tugatish bo'yicha tizimli



chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘ldi. Qonun poraxo‘rlik, mansab vakolatlaridan suiiste‘mol qilish, nepotizm, qarindosh-urug‘chilik asosida ishga qabul qilish kabi holatlarga chek qo‘ydi va bunday jinoyatlar uchun jazolarning muqarrarligini belgilab berdi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, huquqiy ongni yuksaltirish kabi ustuvor yo‘nalishlar ham qonun asosida mustahkamlab qo‘yildi. Zero, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish korrupsiyasiz yashash madaniyatini shakllantirishga bevosita bog‘liqdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo‘li — bu aholining huquqiy ongini yuksaltirishdir. Huquqiy ongning pastligi, huquqiy nigilizmning yuqori darajada ekanligi korrupsiyaning avj olishiga zamin yaratadi. Shu sababli aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Yoshlar orasida huquqiy nigilizmning kuchayishiga bir qator omillar sabab bo‘lmoqda:

- huquqiy bilimning yetishmasligi;
- ta‘lim-tarbiya jarayonida nazoratning sustligi;
- huquqiy targ‘ibotning yetarlicha tahlil qilinmasligi;
- yoshlarning fikrini o‘rganuvchi jamoatchilik institutlarining kamligi;
- qonunga itoatkor shaxsning jamiyatda yetarli darajada e‘tirof etilmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish ta‘lim tizimi orqali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan eng muhim vazifalardan biridir.

Ta‘lim tizimidagi korrupsion omillar. Ta‘lim tizimi — korrupsiyaga qarshi kurashning markaziy maydonidir. Biroq, aynan shu sohaning o‘zida korrupsiyaviy omillar mavjud bo‘lsa, kelajak avlodning dunyoqarashi ham buziladi. Kadrlar tayyorlashning barcha bosqichlarida — maktabgacha ta‘limdan tortib, oliy ta‘limgacha — ayrim salbiy holatlarning mavjudligi ta‘lim sifatiga jiddiy zarar yetkazadi.

Bu kabi omillar ta‘lim sifatining pasayishiga, yoshlarning korrupsiyaga nisbatan bag‘rikeng bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

- Korrupsiyaga qarshi ta‘lim quyidagi maqsadlarga xizmat qilishi lozim:
- korrupsiyaning mohiyati va oqibatlar haqida chuqur bilim berish;
- murosasiz munosabat shakllantirish;
- mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish;



adolat, haqiqat va mas'uliyat kabi insoniy fazilatlarni singdirish.

Buning uchun interfaol metodlar — rol o'ynash, keys-stadilar, videomateriallar, jamoatchilik bilan hamkorlik, vaziyatli muhokamalar kabi usullar juda samaralidir.

“Tarbiya — yo najot, yo halokat masalasi” degan Abdulla Avloniy hikmati ta'lim-tarbiyaning korrupsiyani bartaraf etishdagi ulkan o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorijiy tajriba: ta'lim tizimi orqali korrupsiyani kamaytirish

Dunyodagi ko'plab davlatlar ta'lim tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyaga qarshi samarali natijalarga erishgan:

Braziliya — Yagona davlat imtihonlari orqali OTMga qabul to'liq shaffof amalga oshiriladi.

Argentina — OTMlarga kirishda maxsus imtihonlar bekor qilingan.

Fransiya — imtihonlarni mutaxassislar ishlab chiqadi, tekshirish ham bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

AQSH — PSAT, SAT, ACT kabi standartlashtirilgan testlar butun mamlakat bo'ylab ochiq va bir xil mezonlarda o'tkaziladi.

Yaponiya — variantli testlar va mustaqil baholash tizimlari orqali shaffoflik ta'minlanadi.

Malayziya — davlat imtihonlari orqali OTMga qabul jarayoni tartibga solingan.

Ushbu tajribalar korrupsiyasiz ta'lim tizimi barpo etishda biz uchun ham o'rnak bo'la oladi.

O'zbekiston ta'lim tizimini korrupsiyadan xoli qilish bo'yicha xulosa va takliflar sifatida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lim to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish, barcha ta'lim turlarini yagona talablar asosida tartibga solish.

2. Joriy baholashni reyting tizimi orqali amalga oshirish, yakuniy imtihonlardan voz kechish.

3. Davlat test markazi faoliyatining to'liq shaffofligini ta'minlash, bodikameralar joriy etish.

4. Test javoblarini joyida skaner qilish, internetda erkin tanishish imkoniyatini yaratish.

5. Kirish imtihonlarida ishtirok etuvchi barcha mas'ullarni bodikamera bilan ta'minlash.

6. Maktabdagi yakuniy imtihon natijalarini OTMga kirishda tan olish (Rossiya, Argentina tajribasi).

Xotima o'rnida. Korrupsiyani ildizi bilan yo'qotish — bu uzoq muddatli va murakkab jarayon. Ammo uning eng samarali yo'li — ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, yosh avlod ongida halollik va adolat g'oyalarini mustahkamlashdir. Ta'lim tizimi korrupsiyasiz bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Demak, yuksak ma'naviyat, kuchli huquqiy ong va murosasiz muhit — korrupsiyasiz kelajakning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. — <https://lex.uz/docs/3088008>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni. — <https://lex.uz/docs/4355387>
3. O'rinboyev A.G', Qodirov M.S. Jamiyat rivojiga raxna solayotgan illat. Uslubiy qo'llanma. – T.: BI, 2019.
4. www.lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi.